

Surxondaryo viloyatida bajarilgan qurilish ishlari


2026-yil yanvar oyi uchun

- I. Jami bajarilgan qurilish ishlari
- II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari
- III. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti
- IV. Qurilish ishlari bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Jami bajarilgan qurilish ishlari

2026- yilning yanvar oyida, Surxondaryo viloyatida jami 486,7 mlrd so'mlik qurilish ishlari bajarilib, 2025- yilning mos davriga nisbatan 110,7 % ni tashkil etdi.

Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi



	Hajm, mlrd so'm	O'sish sur'ati, %
Surxondaryo viloyati *	486,7	110,7
Termiz sh.	99,1	120,8
Oltinsoy tumani	3,6	115,2
Angor tumani	8,5	106,3
Bandixon tumani	3,5	108,5
Boysun tumani	21,8	107,4
Muzrabot tumani	9,9	108,5
Denov tumani	35,6	113,9
Jarqo'rg'on tumani	23,6	108,0
Qumqo'rg'on tumani	12,1	100,9
Qiziriq tumani	9,0	106,3
Sariosiyo tumani	27,0	80,6
Termiz tumani	14,2	107,6
Uzun tumani	7,4	109,3
Sherobod tumani	18,6	124,7
Sho'rchi tumani	9,0	106,8

*) Hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmni qo'shgan holda

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)


[Qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

2026-yilning yanvar oyida Surxondaryo viloyatida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 79,1 % ulushni tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 109,7 % ni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 18,4 % ulushni tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 124,7 % ni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 2,5 % ulushni va 2025-yilning mos davriga nisbatan 71,7 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari o'sish sur'ati va hajmi



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha korxona turlari kesimida qurilish ishlari

	Bino va inshootlar qurilishi	Fuqarolik obyektlari qurilishi	Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
Yirik qurilish tashkilotlari hajmi, mlrd so'm	8,7	15,7	0,4
<i>o'sish sur'ati, %</i>	263,0	87,7	25,9
Kichik korxona va mikrofirmalar hajmi, mlrd so'm	165,1	73,8	12,0
<i>o'sish sur'ati, %</i>	104,6	137,4	75,6
Norasmiy sektor hajmi, mlrd so'm	211,0	-	-
<i>o'sish sur'ati, %</i>	111,4	-	-

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(oylik\)](#)

[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(yillik\)](#)


[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(oylik\)](#)

[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(yillik\)](#)

[Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)

[Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

III. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti va o'sish sur'ati




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2026-yilning yanvar oyida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 24,7 mlrd so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2025-yilning mos davriga nisbatan 109,5 % ni va ularning umumiy hajmdagi ulushi 0,1 % ga kamayib, 5,0 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 51,6 % i to'g'ri kelib, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2025-yilning mos davriga nisbatan 110,3 % ni tashkil etgan holda 251,0 mlrd so'm miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 43,4 % ni yoki 211,0 mlrd so'mni tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 111,4 % ni tashkil etdi.

Korxona turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'atlari



Hududlar kesimida korxona turlari
bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari

	Hajm, mlrd so'm			O'sish sur'ati, % da		
	Yirik	Kichik va mikrofirma	Norasmiy sektor	Yirik	Kichik va mikrofirma	Norasmiy sektor
Surxondaryo viloyati *	24,7	251,0	211,0	109,5	110,3	111,4
Termiz sh.	4,7	90,4	3,9	775,0	115,1	115,4
Oltinsoy tumani	0,1	1,9	1,7	-	110,9	115,8
Angor tumani	0,8	5,7	2,1	96,7	105,1	114,3
Bandixon tumani	0,1	2,1	1,3	-	101,6	115,4
Boysun tumani	0,2	16,6	5,0	-	103,9	116,6
Muzrabot tumani	0,1	5,3	4,5	-	101,3	115,6
Denov tumani	0,2	24,0	11,4	-	112,4	115,2
Jarqo'rg'on tumani	1,0	14,4	8,2	107,8	104,3	115,4
Qumqo'rg'on tumani	0,2	8,9	3,0	14,5	107,4	114,2
Qiziriq tumani	0,3	6,4	2,3	142,0	102,2	115,7
Sariosiyo tumani	2,1	16,8	8,1	17,9	115,5	116,2
Termiz tumani	0,2	9,5	4,5	-	102,2	115,0
Uzun tumani	0,1	5,2	2,1	-	105,2	114,1
Sherobod tumani	2,7	7,9	8,0	-	97,9	116,2
Sho'rchi tumani	0,0	5,2	3,7	110,3	100,6	116,9

**) Hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmni qo'shgan holda*

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Termiz shahrida (2025-yilning mos davriga nisbatan 7.8 m), Qiziriq tumani (142,0 %) va Sho'rchi tumani (110,3 %) qayd etildi.

Ko'rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Sariosiyo tumanida (2025-yilning mos davriga nisbatan 115,5 %), Denov tumanida (112,4 %) va Termiz shahriga (115,1 %) kuzatildi.

IV. Qurilish ishlari uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Qurilish ishlari – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Qurilish ishlarining statistik hisobi hisobot davrining amaldagi narxlarida, qo'shilgan qiymat solig'ini qo'shmagan holda, to'lov muddatidan qat'i nazar, hisobot davrida haqiqatda bajarilgan hajm bo'yicha amalga oshiriladi.

Qurilish ishlari hajmi bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

- qurilish faoliyatini olib boruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik);
- kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyatining choraklik tanlanma kuzatuv natijalari;



d) jismoniy shaxslar tomonidan yakka tartibdagi uy-joy va noturar-joy obyektlar qurilishi monitoringi bilan shug'ullanuvchi O'zbekiston Respublikasi Davlat kadastrlari palatasining hududiy boshqarmalari statistika hisobotlari;

e) foydalanishga topshirilgan yakka tartibdagi uy-joylarni tanlama statistik kuzatuv ma'lumotlari;

f) yakka tartibdagi uy-joylarni xo'jalik usuli bilan ta'mirlash hajmini statistik baholash.

Metama'lumot uchun havola:

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1875/Qurilish-ishlari.pdf>

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1877/Aholi-jon-boshiga-qurilishishlari.pdf>

Tayyorlash uchun mas'ul:
Surxondaryo viloyati investitsiya va
qurilish statistikasi bo'limi

Ijrochi:
SH. Gaipov
55 451-80-00 (7520)

Manzil:

